

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MAVZU: CHAQALOQLAR ASFIKSIYASI. ETIOLOGIYASI, KLINIK BELGILARI, TURLARI, DIAGNOSTIKASI, DAVOSI VA PROFILAKTIKASI

Turaxodjayeva Dilnoza Uktamxodjayevna

Tayyorladi: Chirchiq tibbiyot kolleji

“Maxsus fanlar-3” kafedrası yetakchi o’qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi kunda chaqaloqlar orasida uchraydigan kasalliklarning asosiy qismini asfiksiya tashkil etadi. Shuning uchun ushbu kasallik haqida ma’lumotlarga ega bo’lib, homiladorlik davrida ayollarda uchraydigan turli kasalliklarni davolash ishlari o’z vaqtida boshlansa hamda tug’ruq jarayonini to’g’ri tashkil qilinsa, ushbu kasallikni to’liq nazorat qilish mumkin va yuzaga kelasigan asoratlardan holi bo’ladi. Ushbu maqolada asfiksiya kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, davrlari, davolash, oldini olish yoritilgan.

Kalit so’zlar: Asfiksiya, Apgar shkalasi, gipoksiya, gipoksemiya, giperkapniya, sianoz, akrosionoz, aspiratsiya, taxikardiya, bradikardiya, taxipnoe, bradipnoe, koma

Chaqaloqlar asfiksiyasi

Asfiksiya, yani bo’gilish, chaqaloqda gazlar almashinuvi buzilishi munosabati bilan boshlanadigan va o’tkir tarzda o’tuvchi patologik jarayon bo’lib, qon va to’qimalarning kislorodga yulchimasdan qolishi hamda organizmda karbonat angidrid miqdorining haddan ziyod ortib ketishi bilan xarakterlanadi.

Etiologiyasi.

1. Homilador ayol qornida turli kasalliklar natijasida kislorod miqdorining kamayib, karbonat angidridning ortib ketish hollari (nafas a’zolari kasalliklari), yurak-tomir kasalliklari, qon kasalliklari (anemiyalar).
2. Kindik tizimchasining tug’ruq yo’llarida qisilib qolishi, bolaning bo’yniga o’ralib qolishi.
3. Yo’ldoshdagi turli patologik holatlar (erta ko’chish, noto’g’ri joylashuv va boshqalar).
4. Ona qornida homilaning turli kasalliklarga yo’liqishi (yurak tug’ma nuqsonlari, sepsis, toksoplazmoz, listerioz va boshqalar).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

5. Chaqaloq yuqori nafas yo'llarining turli sabablarga ko'ra qisman yoki batamom bekiqib qolishi (qog'onoq suvlari va shilimshiqqlar bilan aspiratsiyalanish, yuqori nafas yo'llarining nuqsonlari).
6. Chaqaloqning tug'ruq yo'llarida uzoq vaqt qolib ketish hollari (tug'ruq kuchlarining susayib qolishi, chaqaloq o'lchovlarining tug'ruq yo'llariga to'g'ri kelmay qolishi va boshqalar).

Klinik manzarasi:

Bola tug'ilgandan so'ng birinchi va beshinchi daqiqalarda uning ahvoli Apgar shkalasi bo'yicha baholanadi:

Belgilari	Bahosi		
	0 ball	1 ball	2 ball
Yurak urishlari soni	Aniqlanmaydi	Sekinlashgan, (1 daq. 100 dan kam)	1 daq. 100dan ortiq
Nafas harakati	Yo'q	Siyrak, tartibsiz	Yaxshi, bola yig'laydi
Mushaklar tonusi	Bo'shashgan	Qo'l-oyoqlari biroz bukilgan	Harakatlari faol
Burun kateteriga javob reaksiyasi yoki oyoq ostini qitiqlash refleksi	Yo'q	Aftini burishtiradi	Aksiradi va yo'taladi
Terisining rangi	Oq	Tana terisi och-pushti rangda, qo'l-oyoqlari ko'kimtir	Boshdan oyog'igacha och- pushti rangda

Diqqat!

- Agar ballar yig'indisi 8-10 ballni tashkil qilsa, chaqaloq sog'lom
- 6-7 ball bo'lsa – qoniqarli,
- 6 balldan past baholansa og'irligini bildiradi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Chaqaloqlar asfiksiyasi 2ga bo'linadi:

1. **Birlamchi (ona qornida boshlangan).**
2. **Ikkilamchi (ona qornidan tashqarida boshlangan yoki orttirilgan).**

Chaqaloq birlamchi asfiksiyasining ikki turi tafovut etiladi:

ko'k asfiksiya va oq asfiksiya.

Ko'k asfiksiyada chaqaloq qonida kislorod yetishmay, karbonat angidrid ko'payib ketadi. Bola badaninipg terisi ko'karib turadi, reflekslar saqlangan, lekin susaygan, muskullar tonusi qoniqarli, yurak qisqarishlari sekinlashgan, yurak tonlari aniq ravshan eshitiladi. Nafas siyrak, nomuntazam, yuza bo'ladi. Apgar shkalasi bo'yicha bola 5-6 ball bilan baholanadi.

Ko'k asfiksiyaning ikki bosqichini tafovut qilinadi: yengil va og'ir asfiksiya. Yengil asfiksiyada chaqaloq badani terisining ko'karib turishi, yurak urishlarining sekinlashuvi va nafas yuzaligi keskin ifodalangan bo'lmaydi. Yengil darajadagi ko'k asfiksiya tez yo'qolib ketadi.

Ko'k asfiksiyaning og'ir darajasida bola badan terisi juda ko'karib, yurak urishlari keskin sekinlashadi, yurak tonlari bo'g'iq, ammo ritmik bo'ladi. Nafas markazi susayib qolgani yoki bola tug'ilishidan ilgari birinchi bor nafas olganida nafas yo'llariga qog'onoq suvlari, shilimshiq tiqilib qolgani tufayli chaqaloq nafas olmay yotadi. Bu xildagi asfiksiyada chaqaloqni jonlantirish usullari qo'llaniladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Oq asfiksiyada chaqaloq nafas olmaydi, badan terisi oqarib, shilliq pardalari ko'karadi, yurak urishi keskin sekinlashadi, ba'zida aritmik, yurak tonlari bo'g'iq bo'ladi. Muskullar tonusi va reflekslar bo'lmaydi yoki keskin susayib ketgan bo'ladi. Kindik puchayib turadi va pulsatsiyasi sezilmaydi. Apgar shkalasi bo'yicha bola 1-4 ball bilan baholanadi.



Diagnostikasi. Chaqaloqning ahvoriga baho berish uchun hozirgi vaqtda Apgar shkalasidan foydalaniladi, chunki u ancha aniq, qulay va maqsadga muvofiqdir.

Asfiksiyaga diagnoz qo'yishda nafaqat asfiksiya turi (ko'k, oq) bilan og'irlik darajasini, balki kalla ichiga qon quyilgan bo'lishi ehtimol deb, uning belgilarini aniqlab olishga ham ahamiyat berish zarur. Kalla ichiga qon quyilishi asfiksiya oqibati yoki ko'pincha asfiksiya bilan birga davom etadigan tug'uruq travmasining oqibati bo'lishi mumkin. Ko'k asfiksiya holatida tug'ilgan chaqaloqni jonlantirishda asfiksiya hadeganda barham topavermaydigan bo'lsa, bu aksari kalla ichiga qon quyilganidan darak beradi.

Davolash va hamshiraning vazifalari: Chaqaloqlar asfiksiyasida birinchi yordam ko'rsatish va davolash ishlari aksariyat hollarda o'rta tibbiyot xodimlari zimmasiga yuklatiladi. Shularni hisobga olgan holda hamshira chaqaloqni jonlantirish, davolash va parvarish qilish bo'yicha barcha amallarni aniq va to'la-to'kis egallagan bo'lishi lozim. Chaqaloqqa tug'ilish jarayonidayoq yordam berish tadbirlari boshlanishi kerak.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1. Yuqori nafas yo'llaridan qog'onoq suvlari va shilimshiqnlarni rezina noksimon balloncha yoki elektr so'rg'ichlar yordamida so'rib tashlanadi va mustaqil nafasni tiklashga harakat qilinadi.
2. Asfiksiyaning yengil darajalarida chaqaloqqa namlangan kislorod beriladi.
3. Og'ir asfiksiya holatlarida chaqaloqqa og'izdan-og'izga yoki og'izdan-burunga hamda apparatlar yordamida sun'iy nafas berishga harakat qilinadi (DP-5, RDA-1, «Vita-1» apparatlari).

Nafas va yurak to'xtab qolganda "O'pka – yurak reanimatsiyasi" zudlik bilan o'tkaziladi



4. Hozirgi zamon usullaridan giperbarik (bosim ostidagi) oksigenatsiya va kranioserebral gipotermiya (bosh miyani sovitish) qo'llaniladi.
5. Kindik venasidan glyukozaning 20% li eritmasi (5 ml/kg), 50-100 mg askorbin kislota, 25-50 mg kokarboksilaza, 1-2 mg/kg miqdorda prednizolon, kalsiy glyukonatning 10% li eritmasidan 0,5-1,0 ml/kg, natriy gidrokarbonatning 4% li eritmasidan 4-5 ml/kg miqdorida yuboriladi. Kindik tizimchasida ish bajarilayotganda aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilishni unutmang.
6. Bosh miya shishishining oldini olish maqsadida albuminning 10% li eritmasi, 1% li mannit yoki quruq plazma eritilgan holda quyiladi.
7. Talvasaga moyillik aniqlanganda 20% li GOMK, seduksen, droperidol eritmalari shifokor ko'rsatmalariga binoan kindik venasidan yoki muskul orasiga yuboriladi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Chaqaloqda klinik o'lim holati aniqlanganda jonlantirish usullaridan foydalaniladi:

I. Legenchenko usuli.

1. Chaqaloq onasining oyoqlari orasiga qo'yilgan tog'oradagi qaynatilgan 38—40° C haroratli suvga (kindik kesilmagan holda) boshigacha tushiriladi.
2. Yuqori nafas yo'llaridan qog'onoq suvlari va shilimshiqlar tozalanadi.
3. Onasiga toza kislorod berib turiladi.
4. Reflekslar saqlangan bo'lsa chaqaloqni vannadan biroz ko'tarib uning ko'krak qafasiga ozroq miqdorda sovuq suv sepiladi, bu nafas markazining reflektor ravishda ta'sirlanishiga va chaqaloqning asfiksiya holatidan chiqishiga olib keladi.

II. Persianinov usuli.

1. Yuqori nafas yo'llaridan yot massalar tozalanadi.
2. Chaqaloqning kindik arteriyasidan (kindik halqasidan 6—8 sm qochirib) 3 ml miqdordagi 10% li kalsiy xlorid eritmasi bo'lib-bo'lib yoki zarbsimon usulda yuboriladi. Ta'sir kuzatilganda bola nafas oladi va yig'lay boshlaydi.
3. Natija kuzatilmagan holda o'sha ignadan, boshqa shprisga oldindan tayyorlab qo'yilgan 100-150 mg askorbin kislota qo'shilgan 40% li glyukoza eritmasidan 5—7 ml miqdorda yuboriladi.
4. Bola onasidan ajratilgach, kindik venasidan natriy gidrokarbonat va kokarboksilaza, glyukoza, prednizolon va askorbin kislota, kalsiy glyukonat eritmalari alohida shprislarda yuboriladi.
5. Bordiyu yurak urmayotgan yoki faoliyati 2 daqiqa davomida tiklanmasa (bilvosita massaj qilish natijasida) yurak bo'shlig'iga 0,1% li adrenalिन eritmasidan yuboriladi. Qanday usulda bo'lmasin, chaqaloqni jonlantirish 3—5 daqiqa davomida davom ettiriladi.

Chaqaloq jonlantirilgach, birinchi bor tozalash o'tkaziladi, issiq, quruq oqlikka o'raladi, oldindan isitib qo'yilgan o'ringa yotqiziladi va nafas olish doimiy nazorat ostiga olinadi.

Og'ir asfiksiyadan chiqarib olingan chaqaloqlarga keyinchalik ham ma'lum vaqtgacha burunga kiritilgan kateter yordamida namlangan kislorod berib turiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Chaqaloqlar asfiksiyasida birinchi yordam ko'rsatish

va davolash:

1. Chaqaloqqa tug'ilish jarayonidayoq yordam berish tadbirlari zudlik bilan boshlanishi kerak.
2. Qanday usulda bo'lmasin, chaqaloqni jonlantirish 3-5 daqiqa davomida davom ettiriladi.
3. Chaqaloq jonlantirilgach, birinchi bor tozalash o'tkaziladi, issiq, quruq oqlikka o'raladi, oldindan isitib qo'yilgan o'ringa yotqiziladi va nafas olish doimiy nazorat ostiga olinadi.
4. Og'ir asfiksiyadan chiqarib olingan chaqaloqlarga keyinchalik ham ma'lum vaqtgacha burunga kiritilgan kateter yordamida namlangan kislorod berib turiladi.

Sun'iy nafas Ambu qopchasida berilishi



**Nafas va yurak to'xtab qolganda "O'pka – yurak reanimatsiyasi"
2 kishi yordamida bajarilishi**



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



**Nafas va yurak to'xtab qolganda "O'pka – yurak reanimatsiyasi"
Og'izdan og'izga nafas berish**



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Ikki barmoq usulida yurakni bilvosita massaj qilinadi



Og'ir asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish intensiv palatada olib boriladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Chaqaloqlar asfiksiyasida birinchi yordam ko'rsatish, parvarish qilish va davolash:



Og'ir asfiksiyada chaqaloq kyuvez apparatida parvarish qilinadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Asfiksiyani boshidan kechirgan chaqaloqning ahvoli istalgan vaqtda og'irlashib qolishi mumkin.

Profilaktikasi. Chaqaloqlar asfiksiyasining oldini olish ishlari onaning homilador bo'lganligi aniqlangan kundanoq boshlanishi lozim. Bu ishda ayollar konsultatsiyasi xodimlari va bolalar hamda oilaviy poliklinikalar hamshiralarning hamkorligi yaxshi samara beradi. Ayoldagi extragenital kasalliklarni erta aniqlash, to'g'ri ovqatlanishi va rejimga rioya qilishini nazorat qilish, erta va kechki toksikozlarning oldini olish choralari ko'rish, tug'uruqqacha patronajlarni vaqtida amalga oshirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Unutmang!

Homilador ayolning salomatligi qanchalik yaxshi bo'lsa, chaqaloqning sog'lom tug'ilish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizayeva «Bolalarda hamshiralik parvarishi». Toshkent, «Fan va texnologiya» 2012 yil.
2. K.S Inomov. «Pediatriyada hamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. “Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish” Uslubiy qo’llanma.

Toshkent, 2010 y.

4. “Bolalikda hamshiralik ishi” fanidan tibbiyot kollejlari uchun metodik qo’llanma.

Toshkent 2016. (UNISEF).

Internet saytlari: www.pediatria.jurnal.ru



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES